

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

milliy tiklanishi



№ 25
7 193

Xalqni rozi qilishdan muhimroq vazifa yo'q **2s**

Rishtonda turistik majmua va kulolchilik markazi ish boshladi **4s**

Bu – boshlanishi

yoki izlanish va intilishdan aslo to'xtamaslik kerak

Azaldan yoshlar ta'limi yoki tarbiyasi hayot-mamot masalasi bo'lib kelgan va ertasini o'ylagan har qanday jamiyatda bu qarash davom etaveradi. Eramizdan avvalgi uch minginchi yillarda bunyod etilgan Misr ehromlarida toshga o'yib yozilgan «Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak» mazmunidagi bitik ham fikrimizni tasdiqlashi mumkin. Yangi O'zbekistonda ham 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan oshdi va bu jami aholining 55 foizini tashkil qilyapti.



«Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!»

3s

TOSHKENT MUROJAATLARDA BIRINCHI



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning birinchi yarmida Qonunchilik palatasiga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 3 ming 777 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 619 tasi Qonunchilik palatasi virtual qabulxonasi, 407 tasi Prezident virtual qabulxonasi, 1 ming 38 tasi fuqarolar qabuli, 386 tasi deputatlarning sayyor qabullari va 1 ming 327 tasi pochta aloqa bo'limi orqali kelib tushgan.

2023-yilning birinchi yarmida deputatlarning saylovchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqoti va uchrashuvlarida esa jismoniy va yuridik shaxslardan 386 ta murojaat qabul qilib olingan. Sayyor qabullar jarayonida yangi shaklda yaratilgan Qonunchilik palatasi virtual qabulxonasi va deputatlarning shaxsiy telegramm kanallari orqali murojaat qilish imkoniyati yaratilgani bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi tomonidan yuborilgan murojaatlar 2022 yilning birinchi yarm yilligida 407 tani tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida ular soni 23 taga oshgan. O'zA tomonidan keltirilgan ma'lumotlarda jami murojaatlarning 2 ming 606 tasi yozma, 1025 tasi elektron, 146 tasi esa og'zaki murojaatlar ekanini ta'kidlanadi. Murojaat tahlili hisobot davrida Qonunchilik palatasiga takroriy murojaatlar soni oshganini ham ko'rsatmoqda. Binobarin, murojaatlarning 508 tasi takroriy murojaatlar bo'lib, ular o'tgan yilning mos davriga nisbatan 139 taga yoki 27,3 foizga oshgan. Hisobot davrida eng ko'p murojaatlar Toshkent shahri (20,3 foizi), Qashqadaryo (13,4 foizi), Toshkent (11 foizi), Samarqand (9,6 foizi), Namangan (8,4 foizi), Farg'ona (6,1 foizi) viloyatlaridan kelib tushgan. Hududlardan Qonunchilik palatasiga yuborilgan murojaatlar soni kamaygan bo'lsa-da, ayrim hududlardan kelgan murojaatlar salmog'i yuqorilgicha qolmoqda. Misol uchun, Toshkent shahridan kelib tushgan murojaatlar soni 2022-yilning mos davrida 1035 tani tashkil etgan bo'lib, hisobot davrida 265 taga kamaygan, ammo Toshkent shahri aholisi tomonidan yuborilgan murojaatlar jami murojaatlarning katta qismini tashkil etmoqda. Boshqacha aytganda, har beshta murojaatning bittasi poytaxtlardan kelib tushgan. Ularning eng ko'pi sudlar vakolatidagi (112 ta), mahalliy davlat hokimiyati (78 ta), uy-joy masalalari (42 ta) va ichki ishlar organlari masalalariga oid (38 ta) murojaatlardir. Shu o'rinda murojaatlarda ko'tarilgan masalalar yuzasidan 2023-yilning birinchi yarmida Qonunchilik palatasining qo'mitalari tomonidan davlat organlari rahbarlarining hisobotlari eshitib borilgan.

(Davomi 2-betda)

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

BIZ – SIYOSATDANMIZ

Kuni kecha «Ayollar qanoti» tashabbusi bilan «Siyosatga marhamat» loyihasining navbatdagi muloqoti bo'lib o'tdi. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularni siyosiy jarayonlarga tayyorlash, deputat ayollarning siyosiy sohadagi ijobiy tajribalarini ommalashtirish maqsadida tashkil etilgan loyiha navbatdagi tadbirida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Zumrad Bekatova va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati Venera Kalenovalar qatnashib, dolzarb savollarga javob berdilar.

(Davomi 3-betda)

Biz tanigan FENOMENNING yana bir qirrasini



7-sahifa

«O'LIM ARAVASI»GA ORTILGAN QISMATLAR...

Ma'lumki, Oktyabr to'ntarishi ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat degan jozibali shiorlar ostida amalga oshirilgan bo'lib, yangi hokimiyat ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, «jamiyatdagi barcha mehnatkash qatlamlar»ning hayotiy ne'matlardan teng bahramand bo'lishlarini e'lon qilgandi. Bu vazifani hal qilishning ustuvor vositalari sifatida xususiy mulkchilikni, «ezuvchi sinflarni» yo'qotish, xo'jalik yuritishning tovarsiz, ya'ni bozorsiz mexanizmini mustahkamlash orqali adolatli prinsiplar hayotga tatbiq etilishini ma'lum qilgandi. Lekin oradan ko'p o'tmay «inqilobdan keyingi» sotsialistik qurilishning hayotiy tajribasi ijtimoiy muammolarni hal qilish borasida bolsheviklar va'da qilgan adolatli

yondashuvning quruq va'da ekanini ko'rsatdi. Bunday jozibali shiorlarga amal qilmaslik 20-30-yillar oraliqida yaqqolroq namoyon bo'la boshladi. Xususan, davlat ishlab chiqarish vositalarining mutlaq oliy mulkdori bo'lib, haddan tashqari markazlashuv va qattiq rasmiy rejalashtirish qaror topdi. Bu esa xalqning milliy huquqlari va qadr-qimmatini poymol qilinishiga olib keldi. Stalincha «kazarma sotsializmi» tizimida insonga chinakam g'amxo'rlik qilish kundan-kunga keyingi o'ringa surib qo'yilar, taraqqiyotning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari o'rtasidagi uzilish esa kuchayardi. Ataylab to'qib chiqarilgan «sinfiy dushmanlarning hiyla-nayranglari»ga qarshi kurash kampaniyasi esa, aksincha avj oldi.

(Davomi 6-betda)




PARLAMENT DIPLOMATIYASI

Amerikalik siyosatchi D.Rask BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida olib borilayotgan muloqotlarini «parlament diplomatiyasi» deb atab, 1955-yilda ushbu tushunchani ilmiy-siyosiy iste'molga kiritgan edi. Vaqt o'tishi bilan bu tushuncha yanada kengayib, xalq diplomatiyasining muhim va samarali shakliga aylandi. Tan olish kerak, hozirgi globallashuv davrida an'anaviy davlat diplomatiyasi bilan birga diplomatiyaning muqobil shakllari ham rivojlanmoqda. Mamlakatlarning fuqarolik institutlari o'rtasida muloqotga kirishishga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun diplomatiyaning jamoatchilik, tarmoq va hokazo shakllaridan tashqari yana bir natijador shakli bor. Bu hukumat rasmiy diplomatiyasidan farqli va eng muhimi, to'g'ridan-to'g'ri xalq vakillari bilan muloqotga kirishish imkonini beruvchi parlament diplomatiyasidir.

4s





O'zbekiston Prezidentining 2023 yil 26 maydagi 79-sonli Farmonida 2024 yildan boshlab ikki bosqichli malaka sertifikatiga ega o'qituvchilarga 70 foizgacha ustama to'lash belgilangan.

XALQNI ROZI QILISHDAN MUHIMROQ VAZIFA YO'Q

Nega turizm sohasi vakillari hamda qurilish vazirligi mutasaddilari sukut saqlashdan nariga o'tolmadilar



«Milliy tiklanish» va O'zLIDEP fraksiyalarining qo'shma yig'ilishida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yilida amalga oshirishga oid davlat dasturining 2023-yilning birinchi yarim yildagi ijrosi yuzasidan Adliya vaziri Akbar Toshqulovning hisoboti eshitildi.

«Milliy tiklanish» yetakchisi Alisher Qodirov yig'ilishning savol-javob qismiga o'tishdan oldin Davlat rahbarining Saylovoldi va saylovdan keyingi uchrashuvlarida parlament amalga oshirilayotgan ishlarining tanqidchisi emas, hamkori, nazoratchisi, ko'makchisi bo'lishi lozimligi haqidagi fikrlarini esladi.
— Har bir deputat amalga oshirilayotgan ishlarga avvalo, qanday qilib yordam berish kerakligi haqida bosh qotirishi lozim. Belgilangan vazifalar ijrosidan biz ham manfaatdormiz. Zero, bugun xalqni rozi qilishdan muhimroq vazifamiz yo'q, — dedi Alisher Qodirov. Ta'kidlanganidek, Davlat dasturida Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilangan. Jumladan, maktabgacha ta'lim qamrovini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, malakali o'qituvchilar oylik maoshini bosqichma-bosqich 1000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, oliy ta'lim qamrovini 50 foizga yetkazish bilan bog'liq vazifalar belgilangan va bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Fraksiya a'zosi Umid Jabborov ushbu masalaga to'xtalar ekan, aynan o'qituvchilar maoshini 1000 AQSH dollariga yetkazish, bog'cha tarbiyachilari ish haqini oshirish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tomonidan qanday ishlar amalga oshirilayotgani bilan qiziqdi.
Vazir o'rinbosari Dilshod Kenjayevning aytishicha, O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 26-maydagi 79-sonli Farmonida 2024-yildan boshlab ikki bosqichli malaka sertifikatiga ega o'qituvchilarga 70 foizgacha ustama to'lash belgilangan. Bog'cha tarbiyachilarining ish haqi ham kelgusi yildan boshlab maktab pedagoglarinikiga tenglashtiriladi. Umuman, o'z ustida ishlab, milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lgan pedagoglar hozir ham 1000 dollardan kam ish haqi olmayapti. Muxtabar Husanova esa «Ayollar daftari» «Temir daftar», «Yoshlar daftari» masalasini ko'tardi. Uning ta'kidlashicha, keyingi paytlarda fuqarolar ushbu daftarlardan asossiz chiqarib yuborilayotgani ko'plab e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Deputat shundan kelib chiqib, fuqarolarning ushbu daftarlarga kiritilishi va

chiqarilishi bo'yicha aniq mezonlar belgilanishi, bu boradagi targ'ibotni kuchaytirish lozim degan taklifni bildirdi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi vakili ushbu taklifga munosabat bildirib, bugun fuqarolarni har bir daftarga kiritish yoki chiqarish bo'yicha aniq mezonlar belgilangani, kimningdir taklifi yoki

ko'rsatilgan. «Yoshlar daftari»ga 295 mingdan ortiq yigit-qiz kiritilib, ularning qariyb 150 ming nafarining kontrakt puli, mehnat qurollari sotib olishi, muddatli harbiy xizmat badali, haydovchilik kurslari, kasb-hunarga o'qitish va davolanishi uchun 275 mlrd. so'm mablag' sarflangan. Davlat dasturida

aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish, 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish ham shular jumlasidandir. Fraksiya a'zosi Bekmirza Eshmurzayev ushbu vazifalardan kelib chiqib, ko'chalardagi sanitariya shoxobchalari masalasini

yo'zma javob berishga va'da berdilar. Yig'ilishda Alisher Qodirov yana bir hodisaga munosabat bildirdi: yaqinda Toshkentda liftda qamalib qolib, hayotdan ko'z yumgan ayol voqeasini eslab, XXI asrda lift ichida odam qolib ketib, vafot etishi mumkin emasligini ta'kidladi.
— Dunyo tajribasida buning oddiy yechimi liftga bitta simkarta o'rnatish ekan. Ya'ni, bu moslama yordam zarur bo'lganda favqulodda vaziyatlar yoki boshqaruv punktiga xabar jo'natadi. Qurilish vazirligi nahotki shu oddiy narsani e'tiborga olmayotgan bo'lsa? Axir XXI asrda bunday voqealar bo'lishi mumkin emas-ku! — dedi fraksiya rahbari Qurilish vazirligi mas'ullariga qarata. Vazirlik vakili esa «bu masalani o'rganyapmiz, ko'rib chiqaypmiz» degan qolip javobdan nariga o'tmadi.
Deputatlar ushbu masalada Qurilish vazirligiga e'tiroz bildirib, bunday holat takrorlanmasligi uchun nazoratni, talabni kuchaytirish, qancha mablag' zarur bo'lsa ajratish kerakligini ta'kidladilar.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri



«Yoshlar daftari»ga 295 mingdan ortiq yigit-qiz kiritilib, ularning qariyb

150 MING NAFARINING KONTRAKT PULI,

mehnat qurollari sotib olishi, muddatli harbiy xizmat badali, haydovchilik kurslari, kasb-hunarga o'qitish va davolanishi uchun

275 MLRD SO'M MABLAG' sarflangan.

e'tirozi bilan bu daftardan hech bir shaxs chiqarib yuborilmasligi, bu ishlar asosan mahalliy kengash deputatlar qarori bilan amalga oshirilishini ta'kidladi. Ma'lumotlarga qaraganda, joriy yilning olti oyida «Ayollar daftari»dagi 30 yoshdan oshgan 7,7 mln. nafar xotin-qiz xatlovdan o'tkazilib, 1 mln. 680 nafari ushbu daftarga kiritilgan va 77 foiziga yordam

«O'zbekiston bo'yab sayohat qil» loyihasi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafarga oshirish hamda xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish bo'yicha vazifalar ham belgilangan. Shuningdek, to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatimizning asosiy turizm shaharlariga keng joriy etish, 2026-yilgacha bu sohada band bo'lgan

ko'tardi.
— Turistlar sonini keskin oshiramiz, deb ko'p gapiramiz. Lekin bir necha yillardan buyon ko'chalarda sanitariya bilan bog'liq oddiy muammolar hal qilinmayapti. Hatto, Toshkent ko'chalarda yurgan sayyoh uchun bo'yicha hech qanday sharoit yaratilmagan, — dedi deputat. Eng qizig'i, turizm sohasi mas'ullari ushbu savolga

✓ Jarayon

(Boshlanishi 1-betda)

TOSHKENT MUROJAATLARDA BIRINCHI

Misol uchun, hisobot davrida Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tashabbusi bilan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining, Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligi va Suv xo'jaligi vazirligining, Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tomonidan Tabiat resurslari vazirligi huruzidagi O'rmon xo'jaligi agentligining axborotlari eshitilgan. Alohida ta'kidlash kerak, Qonunchilik palatasiga kelib tushayotgan murojaatlar har tomonlama chuqur tahlil qilib o'rganilganda, aholi mamlakatimizda kechayotgan jarayonlarni, Prezidentimiz boshchiligidagi barcha sohalarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarni faol qo'llab-quvvatlayotgani kuzatildi. Bundan tashqari, qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir asoslantirilgan takliflar murojaatlarning salmoqli qismini tashkil etayotganini aytish joiz. Masalan, hisobot davrida 224 ta shunday taklif kelib tushgan. Qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan yuborilgan takliflari tegishli qo'mitalar tomonidan ularning o'zlarini ishtirokida muhokama etib borildi. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha berilgan takliflar mas'ul qo'mitalar tomonidan atroflicha ko'rib chiqilgan va asosli deb topilgan 15 ta taklif qonun ijodkorligi jarayonida inobatga olingan. Hisobot davrida parlament nazoratining ta'sirchan shakllaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilganini, xususan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor a'xshlariga 52 ta deputat so'rovlari yuborilganini aytish joiz.

O'zA

✓ Deputat minbari

PORAXO'RDAN KO'RA, pora beruvchi xavfliroq emasmi?

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda «o'qishga kiritish» uchun bir necha ming dollar miqdorida pora olayotgan shaxslar ushlangani haqida xabarlar tarqalgan edi. Eng yomoni, ular orasida oliy o'quv yurti prorektori borligi ham ma'lum qilindi. Afsuski, bunday voqealar birinchi marta yuz berayotgani yo'q, oxirgisi ham bo'lmasa kerak. Chunki o'g'li yoki qizini o'qishga kiritish uchun hamon tanish-bilish qidirib yurganlar, qanday yo'l bilan bo'lmasin farzandini oliy ma'lumotli qilish istagidagi ota-onalar bor ekan, ularni qarmoqqa ilintiradiganlar ham topilaveradi. Bu esa oliy ta'limga kirish masalasidagi eskicha qarashlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi, albatta. Ta'kidlash lozim, Yangi O'zbekiston islohotlarining eng katta yutuqlaridan biri bu shubhasiz oliy ta'limga qabul masalasida ochiqlik va shaffoflikning ta'minlangani bo'ldi. Ma'lumki, test sinovlari 2017-yilgacha oliy ta'lim muassasalari, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning kichik zal va sinfxonalarida o'tkazilar, Davlat test markazi tomonidan esa bu sinovlarni to'liq nazorat qilishning iloji yo'q edi. 2018-yildan esa yangi innovatsion tizimga o'tilib, test sinovlari katta sig'imli binolarda videokuzatuv ostida, hatto onlayn translyatsiya qilingan holda o'tkazila boshlandi. Ilgarigidan farqli o'laroq test sinovlari bo'lib o'tadigan binolarga faqat guruh nazoratchisi,

binolar rahbari va DTM vakilining kirishi belgilab qo'yildi. Bu test sinovlarining adolatli, ochiq o'tishida eng muhim omil bo'lyapti. Test o'tkaziladigan binolarga kirishda shaxsni identifikatsiyalash vositalari hamda videofiksatsiya quurilmalaridan foydalanilayotgani esa jarayonning yanada shaffof bo'lishini ta'minlamoqda. Eng muhimi, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar, jumladan, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish maqsadida oliygohlar soni 2017-yildagi 70 ta o'rniga 2022-o'quv yilida 154 taga yetkazildi. Bugun oliy ta'lim muassasalari soni qariyb 2,5 barobar ko'payib, 186 taga yetdi. Ularning 31 tasi dunyodagi yetakchi universitet va institutlarning filiallaridir. Qayd etish joizki, ayni paytda qabul kvotasi 3,5 barobarga oshirilib, qamrov 9 foizdan 38 foizga yetdi. Ammo afsuski, ana shunday sharoitlarga qaramay hamon farzandini tanish-bilishlar orqali o'qishga kiritishga harakat qilib, chuv tushayotganlar uchrayapti. Bu o'z-o'zidan poraxo'rlar sonining ortishiga olib kelyapti. Bas shunday ekan, bugun poraxo'rlardan ko'ra, pora beruvchilar haqida ko'proq «qayg'urish» kerakka o'xshayapti. Nahot ular ta'limdagi o'zgarishlardan xabari yo'q, eshitmagan bo'lsa. Nafsi hakalak otganlar esa albatta jazosini oladi, o'lyapti ham.




Jamshid QOSIMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda dunyoda 35,3 million qochqin, 5,4 million boshpana izlovchi, 62,5 million majburan ko'chirilgan va 5,2 million xalqaro himoyaga muhtoj shaxslar bor.

BU — BOSHLANISHI

yoki izlanish va intilishdan aslo to'xtamaslik kerak



Akmal JUMABOYEV,
partiya Markaziy kengashi
devoni rahbari

Mehnat bozoriga har yili 600 ming yigit-qiz kirib kelmoqdaki, bu raqamning kelgusi 10 yilda 1 millionga yetishi haqidagi taxminlar yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish zarurligini anglatyapti. Shuning uchun ham yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya berish, ularni kasb-hunarga o'qitib, yurtga sadoqat bilan xizmat qiladigan kadrlar sifatida tayyorlash lozimligi har qadamda ta'kidlanayapti. Bilamizki, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan hujjati ham 2016-yil 14-sentyabrda «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun bo'lgandi.

30-iyun esa yurtimizda Yoshlar kuni deb belgilandi. «2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da ham yoshlar masalasi birlamchi yo'nalish sifatida belgilandi. 2018-yilning 27-iyunida imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmon esa bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham yoshlar siyosatiga oid ko'plab vazifalar belgilanib, ular bugun muvaffaqiyatli ijro qilinayotganini ta'kidlash joiz. Yoshlar hayoti bilan bog'liq eng muhim hujjatlardan yana biri bu shubhasiz, O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasiga «Oila, bolalar va yoshlar» masalasining alohida bob sifatida kiritilgani bo'ldi. Bosh Qonunimizning 78-moddasida qayd etilganidek, davlat va jamiyat bolalar hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlikni, o'z ona yurti hamda xalqining boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. 79-moddada esa davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi, ularning jamiyat hamda davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirib borishi, yoshlarning intellektual jihatdan shakllanishi va rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik, shuningdek, dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga mas'ul ekani belgilab qo'yildi. Xo'sh, bular nimadan dalolat beradi? Bu, eng avvalo, O'zbekistonda davlat yoshlar himoyachisi ekanidan, bu boradagi mas'uliyatni o'z zimmasiga olishidan dalolatdir. Partiyamizning 2020 – 2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida ham yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, jismonan va ruhan sog'lom voyaga yetkazishga doir bir qator vazifalarni belgilab olganmiz. Qayd etish joizki, bugun mahallalarda istiqomat qilayotgan yoshlarga, fanlardan o'zlashtirishi past va kam ta'minlangan oilalar farzandlariga bepul ta'lim berish, ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, kasbiy ko'nikmalarini oshirish borasidagi ishlar yaxshi natijalar beryapti. Jumladan, joriy yilning olti oyida «Yoshlar qanotimiz» tomonidan «Xizmat – beminnat» loyihasi doirasida 250 ga yaqin o'quv kurslari

tashkil etildi va ularda 1164 nafar yigit-qizga bepul ta'lim berildi. «Uyma-uy» loyihasi doirasida esa 3555 ta xonadon holidan xabar olinib, 2197 nafar uyushmagan yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi. 549 nafar yoshga sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalarda yordam ko'rsatildi. 412 nafar yoshlar ish bilan ta'minlanib, 169 nafarining kredit masalasi hal etildi. Shuningdek, 161 nafar yoshga huquqiy maslahatlar berilib, 600 dan ortiq masala deputatlar nazoratiga olindi. Vatanimiz Mustaqilligi tufayli bugun yoshlarimizga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Yangi O'zbekiston islohotlarida bu boradagi ishlar muhim bosqichga ko'tarildi. Zero, yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularni ma'nan yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar, yurtiga, xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash, qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qanchalik e'tibor qaratsak, ertaga ularning ijobiy natijalarini ko'ramiz. Biz yurtimiz va ayniqsa, jondan aziz farzandlarimiz haqida gap ketganda yaxshi bilan yomonni qiyoslashga odatlanganmiz. Bu nazarda, xulosa chiqarishga ko'maklashadigan eng qulay usul. Mana bir gap: ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda dunyoda 35,3 million qochqin, 5,4 million boshpana izlovchi, 62,5 million majburan ko'chirilgan va 5,2 million xalqaro himoyaga muhtoj shaxslar bor. 2022-yildan beri birinchi marta majburiy ko'chirilganlar soni 100 milliondan oshib, 108,4 millionga yetgani aytilyapti. Qochqinlarning yarmidan ko'pi Suriya, Ukraina va Afg'onistondan bo'lib, Myanma, Janubiy Sudan va Venesueladan qochganlar soni ham tobora ortib bormoqda. Bu ro'yxatga AQSH, Indoneziya, Maldiv orollari, Hindiston, Italiya, Tunis, Avstraliya va iqlim va ofat qochqinlari bilan kurashishga urinayotgan boshqa davlatlarni ham qo'shish mumkin. Alohida qayd etilishicha, 2001-yilda 40 millionga yaqin odam majburan ko'chirilgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 108,4 millionga yetgan. Tahlilchilarning fikricha, qochqin fuqaro boshpana bergan mamlakatda qancha uzoq qolib ketsa, ta'lim, integratsiya, ish va repatriatsiya sharoiti yaxshilanishi mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, qochqinlarning 67 foizi boshpana bergan davlatlarda 5 yildan ortiq vaqt qolib ketadi. Yana bir raqam: 108,4 million qochqinning 40 foizi (43,3 million) 18 yoshgacha bo'lgan bolalardir. Eng yomoni, 2018 – 2022-yillar oralig'ida har yili 385 ming bola qochqin bo'lib tug'ilgan va bugungacha ularning umumiy soni 1,9 millionni tashkil qiladi. Bunday raqamlar va og'riqli

sharoitlar haqidagi ma'lumotlardan shubhasiz har birimiz tegishli xulosalar chiqarishimiz kerak. O'zbekiston ham afsuski, ana shunday muammolardan holi davlat emas. Garchi biz uzoq yillar davomida mehnat migrantlari haqida fikr bildirmagan bo'lsakda, og'riqli kasallikni uning isitmasi oshkor qilib qo'ydi. Va, Yangi O'zbekistonda achchiq haqiqat rasman e'tirof etildi. Bas shunday ekan, yoshlar masalasidagi har qanday muammoga jamiyatning birlamchi muammosi sifatida qarassak, bu borada ijobiy natijalarga erishamiz. Chunki yoshlar og'izda yoki qog'ozda emas, balki real hayotimizda millat va xalqning ustuni va kelajagimiz kafolatidir. Bas shunday ekan, ularni o'ylantirayotgan, yo'llarini to'sayotgan yoki shashtini so'ndirayotgan muammolarga ochiq ko'z bilan qarash Yangi O'zbekistonda ichki siyosatiga aylanganini his etmaslik jinoyat darajasida baholalanadigan davrga qadam qo'ydi. Bu yoshlar siyosatining tubdan o'zgarayotganini, bu boradagi islohotlar endi boshlanayotganini anglatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bunda yaqin kunlarda nishonlanadigan Mustaqilligimizning o'rni beqiyos va yoshlarimiz istiqololimizning 32 yilligiga katta tayyorgarlik ko'rmogda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosimdagii nutqida to'g'rirog'i, yoshlarga Murojaatida el-yurt koriga avvalo kim yaraydi degan falsafiy savol qo'yilib, ularga javoblar ham qaytarildi: Albatta, sizlar! Yangi O'zbekistonda, Uchinchi Renessansi kim barpo etadi? Albatta, sizlar! Yurtimiz, xalqimizni kelajakda kim rozi qiladi? Albatta, sizlar! Xalqimiz, Vatanimiz sizlarga ishonadi. Sizlar O'zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk ishlarni amalga oshirishga qodirsiz. Yoshlik – g'animat, vaqt – g'animat, fursat borida otni qamchilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yeting! Dunyoga o'z so'zingizni aytin! Izlanish va intilishdan aslo to'xtamang! Baxt va omad doimo sizlarga yor bo'lsin! Albatta, Davlatimiz rahbari mustaqil va o'z fikriga ega bo'lgan yoshlarimizga qarata bejizga bunday ruhda Murojaat yo'lagani yo'q. Yangi O'zbekiston islohotlarining natijadorligi bevosita yoshlarimizga ham bog'liq. Shu ma'noda, Mustaqil O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlar yurtimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarda faol ishtirok etishini davrning o'zi taqozo etmoqda.

AYOL VA SIYOSAT



«Milliy tiklanish»
navbatma-navbat
siyosatchi opa-
singillarimiz
mulohazalarini
e'lon qilishda
davom etadi.

(Boshlanishi 1-belda)

BIZ - SIYOSAT-DANMIZ

QR Jo'qorg'i Kengesi deputati: Venera Kalenova

– Siyosatga qachon va qay tarzda kirib kelgansiz?
– Ushbu loyiha uchun ilk ishtirokchilaridan bo'lganimdan juda xursandman. Menga boshqa partiyalardan ham takliflar bo'lgandi. Barcha partiyalarning dasturlari bilan tanishib chiqib, aynan «Milliy tiklanish»ni ma'qul ko'rdim va 2013-yilda unga a'zo bo'ldim. Chunki o'zim pedagogman, maktabda ishlayman. Partiya dasturi bilan tanishib chiqqan jamoamiz a'zolari ham aynan shu partiyaaga a'zo bo'lish istagini bildirishdi. Tanlovimda ustozlarimning ta'siri katta bo'lganini alohida ta'kidlashni istardim. Birinchi bor 2014-yilda Nukus shahar Kengashi Qo'shbuloq saylov okrugining deputatlikka saylandim. Shundan keyin partiya tomonidan o'tkazilgan ko'plab loyihalarda, seminar va treninglarga ishtirok eta boshladim. Ortirgan tajribam, olgan taassurotlarim samarasi o'laroq, saylovoldi dasturimni yaratdim. Shu tariqa partiyamning Saylovoldi dasturida belgilangan vazifalarni sidqidildan bajarishga kirishib ketdim. 2019-yili ikkinchi marta QR Jo'qorg'i Kengesi deputatligiga saylandim. Nomzodlik davrimdayoq okrug hududidagi aholi muammolarini o'rganib chiqdim, odamlarning taklif va fikrlarini eshitdim. Bugun esa saylovoldi uchrashuvlar o'rganib chiqilgan muammolar asosida tuzilgan dastur asosida ishlayapman.

menga juda katta kuch bergandi, balki shuning uchun ham to'siqlarga duch kelmagandirman. Bilasiz, partiyamiz dasturida ta'lim-tarbiyaga alohida urg'u berilgan. Pedagog sifatida bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilangina chegaralanib qolmay, ularning salomatligiga ham e'tibor qarataman. Ta'lim maskanlarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli sport musobaqalarini, mintazam ravishda «Deputat kubogini» o'tkazib boraman. Shuningdek, ehtiyojmand oilalarni aniqlab, deputat so'rovlari orqali ularning muammolarini hal etishga harakat qilaman. Boquvchisini yo'qotgan ayollarning farzandlarini bog'chaga joylashtirish, homiylik asosida yetim bolalarning uy-joylarini ta'mirlash kabi bir qator ishlarni ham imkon qadar amalga oshiryapman. Shuning uchun bo'lsa kerak, «Ibratli ayol» guruhiga a'zo qilishgan. Ular bilan birgalikda zo'ravonlikka uchragan ayollarga yordam beryapmiz. To'g'ri, bu vazifalarni bajarish deputatdan katta kuch, tinimsiz mehnat talab etadi. Lekin muammosi hal bo'lgan fuqarolar yuzidagi mamnuniyatni ko'rib, charchog'ing chiqib ketarkan...

– Deputatlikka ikkita nomzod ko'rsatilyapti: biri ayol, ikkinchisi erkak. Qay biriga ovoz bergan bo'lardingiz?
– Albatta, ayol nomzodga ovoz bergan bo'lardim. Aslida bu borada jinsning ahamiyati yo'q. Ammo ayollarda his-tuyg'u kuchli, ishonch va umid ustivor. Kimdir muhimi, nomzodning dasturi, unda xalqning dardi qay darajada aks etgani deyishi mumkin. Lekin men bari bir ayollar mas'uliyatni chuqurroq his etadi, deb o'ylayman.

– Sizningcha, ayollarning siyosiy faolligini oshirish uchun yana nimalarga e'tibor qaratish lozim?
– Maktab partasidan o'quvchilarning siyosiy madaniyatini shakllantirib borish lozim. Yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida esa turli tanlovlar, siyosiy muloqotlar o'tkazish va, albatta g'oliblarni rag'batlantirib borish yaxshi samara beradi, deb o'ylayman.

– Siyosatda ayollarning o'rnini qanday baholaysiz?
– Siyosatda, albatta, ayollarning o'rnini beqiyos. Quvonarlisi, bugun siyosatga qiziquvchi xotin-qizlarimiz soni ortib bormoqda. Ularning siyosiy bilimlarini boyitishda esa mana shunday loyihalar juda muhim.

– Saylovlar jarayonida deputatlikka nomzod sifatida biror muammo yoki to'siqlarga duch kelganmisiz?
– Saylovoldi dasturimni oddiy, xalqona tilda bayon qilganim uchunmi, saylovchilar nomzodimni qo'llab-quvvatlagani

Koordinator Feruza JALILOVA

Kuting!



7 NAFAR BOLA NOM-NISHONSIZ YO'QOLGAN

95 BOLANING 77 NAFARI «YOSHLAR DAFTARIDAGI»GA KIRITILMAGAN...

Feruza MUHAMMEDJANOVA o'rganishlar natijasiz qolmaganini, Sirdaryo viloyati hokimi Akmaljon Mahmudaliyevning tavsiyasi bilan Baxt shahridagi Respublika o'g'li bolalar o'quv tarbiya muassasi faoliyati haqidagi masala viloyat kengashi sessiyasiga kiritilishi «Milliy tiklanish» rejalari hayotga tatbiq etilayotganidan dalolat ekanini ta'kidladi. Biroq...



Kelgusi sonlarda

**RISHTONDA TURISTIK
 MAJMUA VA KULOLCHILIK
 MARKAZI ISH BOSHLAGI**


Farg'ona viloyatining bir necha asrlik tarixiga ega Rishton kulolchiligi bugungi kunda ham yetti iqlimda mashhur. Rishtonlik usta-kulollar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar o'zining dizayni, tabiiy rangi va qalampir nusxali naqshlarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayni kunlarda bu an'analari yangi bosqichda davom ettirilmoqda. Jarayonda tadbirkorlar ham faol ishtirok etayotir. Jumladan, tadbirkor Islomjon Orifjonov "Chinor plus 2020" turistik majmuasi hamda kulolchilik markazini barpo etib, an'analari davomiyligini ta'minlashga hissa qo'shdi. Tumanning "Oqer" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan majmuaning loyiha qiymati 37 milliard so'mni tashkil etdi. Turistik majmuada mehmonxona, yozgi va qishki basseyn va boshqa xizmat ko'rsatish shoxobchalari joylashgan. Ayniqsa, rishtonlik usta kulollarining mahsulotlar galereyasi o'rin olgan kulolchilik markazi bu yerga kelgan sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda.

Muqimjon QODIROV
**«KALEYDOSKOP» DAN SARA
 ASARLAR O'RIN OLDI**

Poytaxtimizdagi Ikuo Xirayama Xalqaro madaniyat karvon saroyida «Kaleydoskop» nomli ko'rgazmaning ochilishi bo'lib o'tdi. Unda 17 nafar rassomning turli uslubda ishlangan 40 ga yaqin sara asarlari namoyish qilindi. Xalqaro madaniyat karvon saroyi badiiy fondi 2007-yilda shakllangan bo'lib, yildan yilga taniqli va yosh rassomlar asarlari bilan boyib bormoqda. Ushbu asarlar yilda bir marta tomoshabinlarga ko'rgazma tarzida namoyish qilinadi. Bu yilgi ko'rgazmadan Anatoliy Bobrovning Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romaniga ishlangan illyustratsiyasi, avtolitografiyalari, Xurshid Sattorovning «Eski Buxoro», Vladimir Nazarovning «Toshkent» asarlari joy oldi. Shuningdek, Galina Lining «Asirga olishdi», Yapon ertaklari: «Qo'rqinchli Matik», «Tanaki xoxotun», «Yamaxori, uylanishni istagan yigit»ga ishlangan illyustratsiya, avtolitografiyalari, Mohira Rahmonovning «Xayollar parvozi», «Ona va bolalar», Medat Kagarovning «Shiddat», «G'olibga shon-sharaflar», «Kun», «Turfangi ilk tashrif», litografiya, «Bahor», Gulzor Sulstonovanning «Baxt qushi», «Shoir iztirobi», «Buyuk Ipak yo'li», Galina Naumovanning «Olmali natyurmort», «Gullar bilan natyurmort», «Eski qumg'on» asarlari o'rin olgan. Shu bilan birga ko'rgazmadan Ruxshona Hoshimova, Radik Azizov, Yevgeniy Pak, Muhammad Foziliy, Sh.Mahmudov, Fazliddin Anvarov, Muhiddin Risqiyevning asarlari ham o'rin olgan.

**Gulnoza BOBOYEVA,
 O'ZA**


Parlament davlat tizimidagi hokimiyat organi sifatida ta'sis etilganligi bois, xalqaro maydonda o'tkaziladigan muzokaralar natijalari yuzasidan ahdnoma va kelishuvlar tuzish, samarali parlament nazoratini o'rnatish nuqtayi nazaridan to'la huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish huquqiga ega.

VAZIYATGA

PARLAMENT

Mamlakat tashqi siyosatining shakllanishida xalq vakillarining ishtiroki bizga nima beradi?

**Alisher HAMRAYEV,
 Sudyalar oliy kengashi sudyasi**


D.Raskning fikricha, parlament diplomatiyasining asosiy vazifasi o'zaro hamjihatlikni o'rnatish, hukumatlar ustidan samarali nazoratni amalga oshirish, xalq vakilligi institutining ta'sirchanligini yanada kuchaytirish va, albatta hukumatlararo institutlarning huquqiy asoslarini mustahkamlashdir. Ma'lumki, ushbu vazifalar zamonaviy parlament diplomatiyasi uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. O'tgan davrda jahon parlamentarizmning rivoji va milliy parlamentlar o'rtasidagi munosabatlarning yaqinlashib, yanada takomillashib borishi natijasida parlament diplomatiyasi davlatlarning tashqi siyosatni shakllantirishda o'ziga xos va natijador mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Parlamentlarning bu yo'nalishdagi faoliyatini asosan ikki jabhaga ajratish mumkin. Bu avvalambor, milliy parlamentlarning xalqaro faoliyati

bo'lsa, ikkinchidan, u davlat hokimiyati organi tizimida (qonun chiqaruvchi hokimiyat) faoliyat ko'rsatuvchi davlat xizmatchisi sanaladi. Parlament a'zosi o'zining parlamentar diplomatlik faoliyatiga xalq vakili va davlat xizmatchisi sifatida yondashish imkoniyatiga ham ega. Bu uning xalqaro munosabatlardagi harakat maydoni kengligini anglatadi. Parlament diplomatiyasining hukumat tarkibidagi, ya'ni Tashqi ishlar vazirligi tizimi bilan tartibga solingan rasmiy diplomatiyadan farqli va yaqqol ko'zga tashlanib turuvchi belgilari bor. Masalan, parlament diplomatiyasida rasmiy diplomatiya singari qat'iy bo'ysunuv prinsipiga asoslangan tizim mavjud emas. Ya'ni, rasmiy diplomatiyadan farqli o'laroq, unda muloqot erkinligi mavjud. Parlament diplomatiyasining ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama xalqaro munosabatlarga xalq va davlat manfaatlarida noan'anaviy yondashish imkoniyati ham bor.

Ta'kidlash joizki, parlament davlat tizimidagi hokimiyat organi sifatida ta'sis etilganligi bois, xalqaro maydonda o'tkaziladigan muzokaralar natijalari yuzasidan ahdnoma va kelishuvlar tuzish, samarali parlament nazoratini o'rnatish nuqtayi nazaridan to'la huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish huquqiga ega. Shuningdek, xalqaro munosabatlarga oid masalalar muhokamasi natijasida parlament davlat organlariga nisbatan tavsiyaviy, ijro va so'rov tariqasidagi hujjatlar qabul qilishi ham mumkin. Ushbu holat Parlament diplomatiyasining ta'sirchan mexanizmlarga ega ekanini ko'rsatadi.

Parlament diplomatiyasining davlat tizimidagi an'anaviy diplomatiyada mavjud bo'lgan rasmiylikdan yiroq tabiati, uning xalqaro muloqotga kirishish erkinligi, xalq irodasi va davlat siyosati taqdimotini xalqaro maydonda xalq vakili sifatida amalga oshirishga, uning jozibadorligi va mamlakat imijini dunyo hamjamiyati ko'z oldida yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Qayd etish joizki, Parlament diplomatiyasi rasmiy diplomatiya kabi ma'lum bir

normalar, qoidalar, amaliy qo'llanmalar va tavsiyalar bilan yuklanmagan. Bu holat Parlament diplomatiyasi uchun xalqaro aloqalarga kirishish jarayonida samimiylik va o'zaro ishonchni yuzaga keltiradi. Shu sabab Parlament diplomatiyasining ta'sirchan «yumshoq kuch» sifatida e'tirof etilishi bejiz emas.

Ma'lumki, dunyoda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarda parlamentlar vakillik organi sifatida eng ko'zga ko'ringan ishtirokchilar hisoblanadi. Ammo o'tgan o'ttiz yil davomida O'zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro aloqalarini shakllantirishda milliy parlamentimizning imkoniyatlari cheklandi. Ikki tomonlama va ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatishda asosan rasmiy diplomatiyaga tayandik. Natijada parlament xalq irodasini ifoda etadigan asosiy institut bo'lsa-da, mamlakatning tashqi siyosiy faoliyatida o'z imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmadi.

Milliy parlamentimiz tashqi siyosat borasida ham xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish, tashqi ishlar vaziri nomzodini ma'qullash, deputat va senatorlarning parlamentlararo va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda kam sonli delegatlar timsolida ishtirok etish bilan qanoatlanib keldi. Ushbu holat zamonaviy tashqi siyosatni yuritishda rasmiy diplomatiya zimmasidagi vazifalarning ko'payishiga, eng asosiysi, o'zaro munosabatlarda rasmiy diplomatiyaning odat va an'analari ustuvor bo'lishiga, globalshuv sharoitida an'anaviy diplomatiyaning cheklangan doirasida saqlanib kelishiga sabab bo'ldi.

Bugunga kelib esa, O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati tufayli nafaqat qo'shni davlatlar, balki uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlanib, strategik sheriklik darajasiga ko'tarilmoqda. Mamlakat tashqi siyosatida bunday ijobiy muhitning shakllanishi, O'zbekistonda parlament uchun ham xalqaro munosabatlarni rivojlantirish borasidagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun keng maydon yaratdi. Prezidentimiz



**PREZIDENTIMIZ SHAVKAT
 MIRZIYOYEVNING «O'ZBEKISTON
 RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH
 BO'YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASI
 TO'G'RISIDA»GI 2017-YILNING 7-FEVRALDAGI
 FARMONIDA 2017 – 2021-YILLARDA
 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI
 RIVOJLANTIRISHNING BESHTA USTUVOR
 YO'NALISHI BELGILAB BERILDI.**

bo'lsa, keyingisi parlament a'zolarining xalqaro parlamentlararo tashkilotlardagi faoliyatidir.


Parlament diplomatiyasining tabiatida rasmiy diplomatiya (hukumat diplomatiyasi) va norasmiy diplomatiyaning (xalq diplomatiyasi) unsurlari uyg'unlashgan deyish mumkin. Parlament a'zosi, birinchi navbatda xalq tomonidan saylangan vakil

KUTING!
Tojiboy ROMANOV:

MUSTAQILLIK

QORAQALPOQLIK

YOSHLAR HAYOTIDA

Kelgusi sonlarda


DIPLOMATIYASI

Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017-yilning 7-fevraldagi Farmonida 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilab berildi.

Ushbu yo'nalishlarning biri «Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish» deb nomlangan bo'lib, unda mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish nazarda tutilganini ta'kidlash joiz. Farmonda qayd etilgan beshinchi yo'nalish «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritish» deb belgilangan bo'lib, unda O'zbekistonning yon-atrofdagi xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan.

Quyi palataning xalqaro yo'nalishdagi faoliyati natijadorligini oshirish, xalqaro aloqalar geografiasini kengaytirish, parlamentlararo guruhlar ishini jonlantirish maqsadida yangi parlament instituti bo'lgan Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari lavozimi ta'sis etildi. Agar 2015 - yili palatada xorijiy davlatlarning parlamentlari bilan hamkorlik bo'yicha 9 ta parlamentlararo hamkorlik guruhi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2021 - yilda ular soni 40 dan oshdi, shundan 32 ta guruh Senat bilan birgalikda tuzildi. Ushbu yangi institutning joriy etilishi esa quyi palataning xalqaro parlamentlararo aloqalarini sezilarli darajada faollashtirdi.

Aytish joizki, ayni paytda parlamentlararo guruhlar doirasida o'tkazilayotgan onlayn muhokamalar, tashriflar kun tartiblariga biz va hamkor mamlakatlar uchun dolzarb masalalar muhokamasi kiritilmoqda. Ushbu masalalar esa qizg'in muzokaralar va bahslarga sabab bo'lib, mamlakatlar parlamentlari o'rtasida yaqin va ishonchli



aylanganini aytish joiz. Parlamentlararo ittifoq, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining parlamentlararo assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar Parlamentlararo assambleyasi shular jumlasidandir. Parlamentimiz a'zolari mazkur nufuzli tashkilotlarning rahbarlik lavozimlari va qo'mitalar a'zolariga ham saylanmoqda.

Ko'pchilikka ma'lumki, yangi Konstitutsiyamizda parlament vakolatlari kengaytirilib, mamlakat tashqi siyosatida parlament ishtiroki yanada mustahkamlandi. Konstitutsiyamizning tegishli moddalarida hukumatning tashqi siyosat borasidagi faoliyati ustidan parlament nazorati yanada kuchaytirilib, ijro etuvchi hokimiyatning qabul qilingan huquqiy va dasturiy hujjatlar ijrosi bo'yicha parlament oldidagi hisobdorligi belgilab qo'yildi.

Parlamentimiz tomonidan belgilangan ustuvor yo'nalishlar sirasiga xorijiy mamlakatlar parlamentlari, xalqaro tashkilotlar va xalqaro parlamentlararo hamjamiyatlari bilan o'rnatilgan samarali munosabatlar, ushbu aloqalar orqali O'zbekiston manfaatini ilgari surish, do'stlik, insonparvarlik, hamkorlik mavzusidagi xalqaro tadbirlar doirasida xorijiy mamlakatlar siyosatida O'zbekiston uchun qulay va iliq iqlim yaratish, xorijda yashovchi vatandoshlar bilan «Vatan tuyg'usi», «Vatan taraqqiyotiga daxldorlik» va «Ajdodlarimiz yurti» singari mavzularni ilgari surgan holda yanada yaqinroq aloqalar o'rnatish kabilar kiradi.

Ma'lumki, 2022-yilning 14-dekabrida BMT Bosh Assambleyasi «Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi rezolyutsiyani ma'qulladi. Ushbu hujjatni qabul qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surilgan edi.

Rezolyutsiyada «COVID-19»dan keyin insonparvarlik g'oyalarga asoslangan holda barqaror va ichil tiklanishni qo'llab-quvvatlash va har tomonlama hamkorlikka sodiqlikni mustahkamlashda parlamentning muhim o'rni qayd etildi. Ushbu nufuzli tashkilot tomonidan jahan parlamentarizmi faoliyatiga doir


mamlakatimiz rahbari ilgari surgan ushbu taklif bo'yicha alohida rezolyutsiya ham qabul qilindiki, bu O'zbekiston o'z xalqaro munosabatlarini va tashqi siyosatini yangi prinsiplar asosida tashkil etayotgan dalolatdir. Shu bilan birga parlamentimizning ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro aloqalarga tegishli faoliyatining tahlili esa bu borada ham e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ayrim masalalar borligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, O'zbekiston tomonidan imzolangan xalqaro shartnomalar ijrosini parlament nazorati tartibida o'rganishni amaliyotga joriy etish juda muhimdir. Chunki ushbu shartnomalar ijrosi bilan mamlakatimizning xalqaro munosabatlari darajasiga baho beriladi. Parlamentlararo hamkorlik doirasida parlament a'zolarining chet elga rasmiy tashriflari puxta rejalashtirilgan, muzokaralar doirasida xorijiy sherkatlar bilan muhokama etiladigan masalalarga oldindan tayyorgarlik ko'rilgan bo'lishi lozim. Parlament a'zolari xalq vakili sifatida davlatimizning xalqaro munosabatlarida ustuvor bo'lgan maqsad va prinsiplarini ifoda etishda mamlakat va xalq salohiyatini namoyish qila olishi kerak.

Shu o'rinda parlamentlararo hamkorlikka doir tashriflarga natijadorlik nuqtayi nazaridan yondashish lozimligini ham aytish joiz. Amaliy natijalarga erishishning ustuvor vazifa sifatida belgilanishi, hamkor mamlakatlarda parlamentimiz delegatsiyalari tashrifiga qiziqish uyg'otadi.

Parlamentlararo guruhlar a'zolari o'rtasida hamkor davlatlarning tarixi, madaniyati va iqtisodiyoti o'rganilsa, shuningdek, bu mamlakatlar bilan qonun ijodkorligiga oid trening mashg'ulotlari tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi, albatta. O'z navbatida deputat va senatorlar vakillari e'tiborini tortadigan darajada taqdimot qilish bo'yicha ham zamonaviy ko'nikmalarini egallashlari lozim.

Qayd etilgan masalalarga e'tibor kuchaytirilishi esa shubhasiz, parlamentimizning xalqaro aloqalari rivojini va samaradorligini ta'minlashga, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



12 YILLIK NATIJA TAKRORLANDI

Rishod Sobirovning 12 yil oldingi natijasini Muzaffar To'raboyev takrorladi. Vengriya poytaxti Budapeshtda dzyudo bo'yicha «Masters» turniri o'z shiddati va qiziqarliligi bilan dunyo dzyudo ixlosmandlarining diqqat markazida turdi. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari mazkur nufuzli musobaqada munosib ishtirok etdi. Iste'dodli sportchimiz Muzaffar To'raboyev 100 kilogramm vazn toifasida oltin medalga sazovor bo'lib, 12 yil oldingi natijani takrorladi. E'tiborlisi, yilda bir marta o'tkaziladigan «Masters» musobaqasida hamyurtlarimizdan so'nggi bor mahoratli dzyudochimiz Rishod Sobirov 2011-yili ushbu turnirning oltin medalini qo'lga kiritgan edi. Bu safar Muzaffar Rishodning yo'lini davom ettirdi.

Musobaqada ikki karra Olimpiada va jahon chempioni Lukash Krpalekni mag'lub etgan To'raboyev chempionlik yo'lida Sheydi Elnaxas (Kanada), Mixael Korrel (Niderlandiya), Boyan Dosen (Serbiya) va Peter Paltchik (Isroil) kabi sportchilarni dog'da qoldirdi. Shuningdek, 90 kg vazn toifasida ishtirok etgan «Tokio - 2020» Olimpiadasi sovrindori Davlat Bobonov bronza medaliga sazovor bo'ldi. Ushbu muvaffaqiyat evaziga To'raboyev 1800, Bobonov 900 reyting ochkosiga ega bo'ldi.

Shu tariqa, O'zbekiston terma jamoasi bu yilgi «Masters» turnirini 1 ta oltin va 2 ta bronza medali bilan yakunladi. Eslatib o'tamiz, musobaqaning ilk kunida Diyora Keldiyorova shohsupaning uchinchi pog'onasidan joy olgan edi. 1 ta oltin, 2 ta bronza medalini qo'lga kiritgan O'zbekiston terma jamoasi 59 davlat vakillari orasida umumjamoada «Masters» turnirida 6-o'rindan joy oldi.

O'ZA

Quyi palataning xalqaro yo'nalishdagi faoliyati natijadorligini oshirish, xalqaro aloqalar geografiasini kengaytirish, parlamentlararo guruhlar ishini jonlantirish maqsadida yangi parlament instituti bo'lgan Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari lavozimi ta'sis etildi. Agar 2015 - yili palatada xorijiy davlatlarning parlamentlari bilan hamkorlik bo'yicha 9 ta parlamentlararo hamkorlik guruhi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2021 - yilda ular soni 40 dan oshdi, shundan 32 ta guruh Senat bilan birgalikda tuzildi. Ushbu yangi institutning joriy etilishi esa quyi palataning xalqaro parlamentlararo aloqalarini sezilarli darajada faollashtirdi.

Demokratik islohotlarni amalga oshirish va mamlakat tashqi siyosatiga yangicha yondashuv maqsadida «2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» mamlakat rahbari tomonidan ilgari surilgan maqsadlar milliy parlamentga bu sohada o'z faoliyatini tahlil qilib, qayta ko'rib chiqish va zamonaviy xalqaro munosabatlar doirasida o'z vazifalarini aniq belgilab, ko'p tomonlama parlament aloqalarini takomillashtirish uchun turtki bo'ldi.

Shundan keyin parlament palatalari rahbarlari tomonidan xalqaro parlamentlararo aloqalarni tizimli ravishda rivojlantirish yuzasidan tizimli va tashkiliy chora-tadbirlar belgilana boshlandi. O'n yillik tanaffusdan keyin, ya'ni 2017-yilda dunyo parlamentariylarining eng nufuzli instituti hisoblangan Parlamentlararo ittifoq (PAI) a'zolariga O'zbekistonning qaytganligi dunyo parlamentlari nazarida parlamentimiz nufuzining oshishi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

aloqalar, samarali hamkorlikka va albatta, tajriba almashinuviga sabab bo'lmoqda. Xalqaro munosabatlardagi izchil faoliyat natijasida esa parlamentimizda faqat 2019-yilning o'zida 248 ta chet el delegatsiyalari qabul qilindi.

Xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda parlament rolini yanada oshirish va ushbu faoliyatning dasturiy ta'minoti sifatida «O'zbekiston Respublikasining parlament diplomatiyasi Konsepsiyasi» ishlab chiqilib, palatalar kengashlari tomonidan tasdiqlandi. Ushbu hujjatda xorij parlamentlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, ularning qonun ijodkorlik tajribasini o'rganish uchun xalqaro aloqalarni yaqinlashtirish, xalqaro parlamentlararo tashkilotlar faoliyatida Oliy Majlisning faol ishtirokini ta'minlash, Yangi O'zbekiston islohotlari to'g'risida xalqaro hamjamiyatni xabardor qilish, davlatimiz tashabbuslarini ilgari surish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Shu o'rinda juda qisqa muddatda parlamentimiz ko'plab nufuzli xalqaro birlashmalarining faol ishtirokchisiga

✓ PARTIYAVIY LOYIHALAR

12 -yanvar kuni respublikadagi anomal sovuqda Toshkent shahri obodonlashtirish xizmati xodimlari uchun «Milliy tiklanish - millat bilan» shiori ostida tadbir tashkil etildi.

30 -mart kuni «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi «Yoshlar qanoti» tomonidan «Bexato yoz» loyihasining navbatdagi 2-mavsumi tasvirga olindi.

5 -may kuni «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalari uchun «Ochiq eshiklar» kuni tashkil etildi.

11 -may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentiga «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan saylangan nomzodlarning ta'sis yig'ilishi o'tkazildi.

200 ga yaqin xorijdagi talabalar va vatandoshlar bilan «Vatandosh bilan suhbat» loyihasi doirasida ZOOM orqali suhbat o'tkazildi. Mazkur loyiha doirasida Daniya Qirolligida istiqomat qilayotgan vatandoshimiz Lana Ruscich bilan yoshlarning ochiq muloqoti tashkil etildi.

«Yoshlar qanoti» tomonidan:

«Ayollar qanoti» tomonidan:

- 27-YANVAR** kuni partiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolariga saylov Nizomi loyihasi ishlab chiqilib, Ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi.
- YOSHLAR PARLAMENTI** a'zosi A.Ochilboyevning she'riy to'plami taqdimoti bo'lib o'tdi.
- YANVAR-FEBRAL** oylarida partiyadan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolariga saylovning hududiy va respublika bosqichi o'tkazildi.
- 3-MART KUNI** «Yangilanayotgan Konstitutsiya ayollar va yoshlar nigohida» mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi.
- 8-MART** - «Xalqaro xotin-qizlar kuni» munosabati bilan O'zMTDP faxriy ayollari ishtirokida «Mo'tabar ayol» tadbiri tashkil qilindi.
- 25-MART KUNI** 2022-yildagi faoliyati ijobiy baholangan «Deputat ayollar klubi» a'zolarini taqdirlash marosimi o'tkazildi.

- 11-MAY KUNI** «O'zbekistonda xotin-qizlar va yoshlar huquqlari davlat himoyasida» mavzusida ochiq muloqot o'tkazildi.
- 10 - 15-IYUN** kunlari partiya «Ayollar qanoti» hamda mahalliy Kengash deputatlaridan iborat Ishchi guruh tomonidan Bolalar musiqa va san'at maktablari nazorat-tahlil tartibida o'rganildi.
- 14 - 16-IYUN** kunlari partiyaning «Ayollar qanoti» hamda mahalliy Kengash deputatlaridan iborat Ishchi guruh tomonidan Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazi hamda uning hududiy bo'limlari nazorat-tahlil tartibida o'rganildi.
- 23-IYUN KUNI** «Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mexanizmlari: O'zbekiston va xorij tajribasi» mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi.

@MTAyollarmurojaatiBot iga joriy yilning yanvar-mart oylarida 5 ta murojaat kelib tushdi.



F.Xo'jayev o'zining «Ikki doklad» asarida 1932-yil: «...sog'liqni saqlash Komissarligi yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaradigan sabablar bilan kurash olib borishi lozim... Bizning temir yo'l transportimiz va vokzallarimizning ahvoli to'g'ridan to'g'ri tiftning o'chog'idir», deb yozgandi.

«K A T T A»

«O'LIM ARAVASI»GA



ULAR OCHLIKDAN AZIYAT CHEKMOQDALAR

O'tgan yili dunyoda ochlikdan aziyat chekayotganlar soni chorak milliard kishiga yetdi. Bu haqida BMTning Oehligning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha koordinatori Rina Gelani ma'lum qilgan. «BMT yangiliklari» portali ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda yana 35 million kishi ochlik yoqasida. BMT Xavfsizlik Kengashi yig'ilishida so'zlagan nutqida mojarolarga asoslangan ochlik, iqlim o'zgarishi va iqtisodiy zarbalarning «toksik birikmasi» bilan kuchayib borayotganini ta'kidladi. Iqlim o'zgarishi tinchlik va xavfsizlikka mavjud tahdidlarni kuchaytirmoqda. Iqlim o'zgarishiga eng zaif bo'lgan o'nta mamlakatdan yettitasi allaqachon mojarolardan aziyat chekayapti. Ulardan oltitasi BMTning tinchlikparvar yoki maxsus siyosiy missiyasiga ega. To'rttasida milliondan ortiq odam ochlik yoqasida. BMT koordinatori, mavjud erta ogohlantirish mexanizmlaridan samaraliroq foydalanishni ta'minlash hamda mojarolarning aholining eng zaif qatlamlariga ta'sirini yumshatish yo'larini izlashga «dadil va jodiy» yondashish zarur, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, aholini himoya qilishda ayollar va qizlar sa'y-harakatlar markazida bo'lishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy ayollarni tinchlik o'rnatish jarayoniga jalb qilish zo'ravonlikka barham berish ehtimolini 24 foizga oshiradi. Rina Gelani, shuningdek, millionlab odamlarning hayoti bog'liq bo'lgan gumanitar loyihalarni yetarli darajada moliyalashtirishni yo'lga qo'yish zarurligini ham bildirgan.


O'ZA

Bunday sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy sohada ayrim «muvaffaqiyatlar» ko'zga ko'ringan bo'lsa-da, bu yutuqlarga katta yo'qotishlar, xalq manfaatlariga zid bo'lgan tadbirlar evaziga erishildi. Albatta, «Harbiy kommunizm» rejimi yetkazgan zarar ko'lami nihoyatda keng bo'lib, yangi iqtisodiy siyosatning islohotchilik ta'siri darhol namoyon bo'lolmasdi. Buning ustiga Turkistonda yangi iqtisodiy siyosat yo'lga o'tish jur'atsizlik bilan olib borildi. Natijada xalqning moddiy ahvoli halokatli tarzda yomonlashib bordi. Bu vaqtga kelib qurg'oqchilik Rossiyaning markaziy rayonlarini qamrab olgan va respublikamizdan olib ketilgan paxta evaziga ayirbosh qilinib, olib kelinadigan g'allaning to'xtab qolishi oqibatida och qolgan Rossiyaliklar Turkistonga oqib kela boshladilar. Bu hol shusiz ham vayron bo'lgan Turkiston qishloqlari uchun og'ir yuk edi. Mustabid tuzumning xalq moddiy farovonligini yaxshilash vazifalarini hal qilishdagi nuqsonlari aholini ijtimoiy ta'minlashni tashkil etishda, ayniqsa, yaqqolroq sezila boshladi. Avval, boshdan oq Sovet davlati «mehnatkash bo'lman» qatlamlardan tashqari o'lka mahalliy aholisining asosiy qismi bo'lgan o'zbek dehqonlarini ijtimoiy ta'minot doirasidan chiqarib tashlagan edi. Ya'ni shahar aholisi, asosan ishchilar, «qizil jangchilar» va ularning oila a'zolari (ular asosan yevropaliklar edi) g'ina ijtimoiy ta'minot tizimi bilan qamrab olingandi. Qishloq aholisi hech qanday ijtimoiy to'lovlar bilan ta'minlanmagan bo'lsa, endi ular o'zlariga haqida o'zlariga g'amxo'rlik qilishlari lozim edi. Umuman, «buyuk burilish» o'z mohiyatiga ko'ra, xalqni talashga asoslangandi. Qayd etish joizki, davlat xazinasi to'ldirishning favqulodda vositasi sanalgan qog'oz pullarning misli ko'rilgan darajada ko'paytirilishi bo'ldi, ular real tovarlar bilan ta'minlanmagan natijasida so'mning haqiqiy qiymati tezda pasayib ketdi. Narx-navo shiddat bilan ko'tarildi. Oziq-ovqat va sanoat mollarining davlat narxi o'nlar barobarga ortdi. Ayniqsa, qishloqlarda og'ir vaziyat vujudga kelib, yalpi kambag'allik: ochlik, keng dehqonlar ommasining qashshoqligi ko'zga tashlandi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini majburan yetkazib berishdan iborat yaramas tajriba esa dehqonlar aholini battar mushkullashtirdi. Moskva va belgilab bergan noreal reja topshiriqlarini qanday qilib bo'lsa ham bajarishga intilgan mahalliy hokimiyat organlari jamoa xo'jaliklaridan ham, davlat xo'jaliklaridan ham, jamoalashtirilmagan yakka xo'jaliklardan ham qishloq xo'jalik

mahsulotlarini «supurib olardi». Bunday tajriba agrar tanglikka, aholining oziq-ovqat ta'minoti yomonlashuviga, xalqning, ayniqsa, o'zbek dehqonlari turmush darajasining halokatli tarzda pasayib ketishiga olib keldi. Dehqonlarni bu tarzda ezishning stalincha usuli 1932-1933-yillarda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi va ocharchilik fojialarini keltirib chiqardi. Xorijiy tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, o'sha paytda sun'iy tashkil qilingan ocharchilik qurbonlari soni Ittifoq bo'yicha kamida 7 mln. kishini tashkil etgan. O'zbekiston ham bu fojidan chetda qolmadi: Toshkent va boshqa shaharlardagi qayg'uli yillarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilarning xotiralariga ko'ra, «ko'chalar va yo'llarda son-sanoqsiz jasadlar uyumi yotardi». Xalq tomonidan «o'lim aravasi» deb atalgan yuk mashinalarida ularni «uxdu o'tin kabi ortishar... va bir amallab umumiy chuqurlarga ko'mishardi. Qishloqlarda bir iloj qilib omon qolishga intilgan mehnatkashlarga yordam berish o'rni ularga qarshi qatag'on choralari kuchaytirildi. Ochlik girdobiga tortilgan qishloq aholisi esa dalalardan don, kartoshka va boshqa mahsulotlarni olib ketishga majbur bo'lardi. Shunday mushkul ahvolda qolgan dehqonlarning bu harakatlariga javoban 1932-yil 7-avgustda SSSR hukumati «Sotsialistik mulkini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Bu qonunda «kolxoz... mulkini talon-toroj qilganligi uchun sud jazo sifatida otish va barcha mol-mulkini musodara qilish», yumshatuvchi holatlarda esa — «10 yildan kam bo'lman muddatga ozodlikdan mahrum etish va butun mol-mulkini musodara qilish» talabi belgilab qo'yildi. O'zbekistonda mazkur qonunga muvofiq, 1933-yilning o'zida 2,5 ming dehqon ma'muriy javobgarlikka tortildi. Sovet davrining barcha bosqichlarida tovarlar tanqisligi va oziq-ovqat masalasi bilan bir qatorda uy-joy muammosi ham keskinlashgan edi. Oktyabrdan keyingi dastlabki yillarda bu muammo faqat musodara yo'li bilan hal qilinay, badavlat tabaqalardan tortib olingan uylar va xonadonlar ko'proq siyosiy jihatdan faol ishchilar va mansabdor shaxslarga ajratildi. Faqat 1924-yildan boshlab davlat yangi uy-joylar qurilishiga mablag' ajrata boshladi. Lekin bu mablag' nihoyatda kam bo'lib, uy-joylar faqat Toshkent va Samarqandda qurildi, xolos. Uy-joy siyosati strategiyasi ham sinfiy xususiyat kasb etganini alohida ta'kidlash joiz. Ya'ni uni amalga oshirishda «ishchi shaharchalari» deb atalgan shaharchalar yaratishga alohida e'tibor qaratilib, hokimiyat organlarining fikriga ko'ra, bu shaharchalarni bo'lajak sotsialistik shaharlarning tayanch yachekalariga aylantirish ko'zda tutildi. Turar-joylar ko'pincha Markazdan kelgan ishchilar va mutaxassislariga berilardi. Aholining salomatligini muhofaza qilish masalasiga ham ana shunday yondashildi.

Xususan, qishloq aholisi barqaror tibbiy xizmat ko'rsatish doirasidan chetda qoldirilgan, tibbiyot xodimlari hatto shaharlarda ham yetishmasdi. Masalan, qishloq joylarida 35 ming aholiga bitta shifokor, 10 ming qishloq aholisiga bitta kasalxonaga o'rni to'g'ri kelardi. Natijada qishloq aholisining aksariyati o'z sog'lig'ini muhofaza qilishdek murakkab muammolarni davlat yordamisiz hal qilishga majbur edi. Buning asl sababi o'zbek millatiga mansub shifokorlarning kamligi edi. Ularning salmog'i 7 foizdan kamroqni tashkil etardi. Bu aholining 70 foizdan ko'prog'ini o'zbeklar tashkil etgan respublikadagi holat edi. Bu borada F.Xo'jayev o'zining «Ikki doklad» asarida 1932-yil: «...sog'liqni saqlash Komissarligi yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaradigan sabablar bilan kurash olib borishi lozim... Bizning temir yo'l transportimiz va vokzallarimizning ahvoli to'g'ridan to'g'ri tiftning o'chog'idir», deb yozgandi. Hokimiyat tuzilmalari jamiyatni jilovlash va bir xillashtirish uchun jazolovchi chora-

tadbirlarga murojaat qilar ekan, butun-butun ijtimoiy guruhlar va qatlamlarni asossiz ravishda yo'q qildilar, jamiyatning tabiiy ijtimoiy tabaqalanish negizini o'z boshimchalik bilan buzdilar. Ijtimoiy bo'linishning butun xilmaxilligi eng oddiy tabiiy negizdan: ikkita «sotsialistik» sinf - ishchilar va kolxozchi dehqonlar, shuningdek, ijtimoiy qatlam bo'lgan «sotsialistik» ziyolilarga ajratilgan holda qat'iy belgilab qo'yildi. Bunday yondashuv aholining «ezuvehilar» toifasiga kiritilgan ko'pdan ko'p guruhlardan qonli o'ch olishga va jamiyatdagi mavjud ijtimoiy kuchlarni to'g'ri aniqlashda bir qator chalkashliklarga olib keldi. Natijada, ko'pgina ijtimoiy guruhlar, masalan, ruhoniyat, taklif qilingan andozaga «sig'maganligi» uchun diqqat-e'tibordan butunlay chetda qoldi. Stalin jamiyatda sinfiy dushmanning yangi qiyofasini quyidagicha tasvirlaydi va undan ehtiyoqkor va unga nisbatan beshafqat bo'lishga chaqirib: «endi u «yovvoyi bashara, xunuk tishli, bo'yni yo'gon, qo'lida kesik miltiq tutgan» odam emas,



«Hujum» kampaniyasi (1927-1928) yillarida O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar, qishloq, tumana kengashlarining a'zolari, xotin-qizlar klublari va kutubxonalar mudirlari o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi.

✓ KINOCHILIK

«Bobur sahnasi»dagi oq va qora dog'lar



Yaqinda «Xalq yuragi» loyihasi doirasida rejissyor Bobur Sher o'g'li tomonidan suratga olingan «Yo'lbars izidan» tarixiy-hujjatli filmni tomosha qilib, «bo'larkanu, yaxshi kino olsa» degan o'y o'tdi xayolimdan.

Buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan mazkur kinoasar 35 daqiqadan iborat bo'lsa-da, vaqtigizga achinmaydigan kino bo'libdi.

Filmning dastlabki epizodi Boburning Hindistonda zaharlanish voqeasi bilan boshlanadi. Epizodlar oralig'ida respublikaning va xorijlik taniqli olimlar, professor, ijodkorlar va jamoat faollarining Bobur haqidagi intervyulari havola qilinadi. Jumladan, Xayriddin Sultonov, Zokirjon Mashrabov, Abdumajid Madraimov, Mirzayusuf Rustamboyev, Rahim Jumaboyev (O'zbekiston), Viller Tekston (AQSH) Sayid Naqi Abbos, Najaf Haider (Hindiston), Magda Mahfuzlar (Misr)ning film syujetlariga mos mulohazalari, fakt va ma'lumotlaridan o'rinni foydalanilgan. Filmning umumiy foni xalqaro telekanallarining mashhur hujjatli kinolarini ham eslatadi. Tasvirida anqlik, kadrlarning tez-tez almashishi, tomoshabinni toliqtirib qo'yimaslik uchun jang manzaralarining namoyishi, O'rta asr me'morchilik namunalari ishonarli tarzda tiklangani, sahna kostyumlarining

o'z davriga uyg'unligi ham filmda badiiy-estetik joziba bag'ishlagan.

Filmning umumiy manzarasida Boburning kechinmalariga parallel holda o'sha davrning murakkab ruhiyatini ifodalashga harakat qilingan va bunga erishilgan ham. Olimlarning Bobur faoliyati haqidagi intervyulari esa filmning ilmiy jihatdan to'yintirilishiga xizmat qilgan. Saroy sahnalari, xususan, taxt ko'rinishi ham davr ijtimoiy kayfiyatiga mos ravishda tanlangan. Taxtning ikki yonidagi yirtiqch — yo'lbars va sherning joylashtirilgan, ularning Bobur ortidan ergashib yurishi bosh qahramon salobatini yanada oshirgan. Kadrlar va epizodlarga mushtarak tarzda Boburning g'azal va ruboiylari o'qib borilib, «Boburnoma» matnidagi miniatyuralar harakatlantiriladi. Film syujetida Boburning Andijondagi bolalik davri, Samarqanddagi qonli to'qnashuvlar, Hindiston zabt etilishidagi mashaqqatli hamda o'z jonini o'g'li Humoyunga nazr qilinishi kabi tafsilotlarga alohida urg'u berilgan. Umuman olganda, film ssenariysining asosini Zahiriddin Muhammad Boburga bo'lgan ehtirom va chuqur izlanish hosilasi tashkil etganini his etish

mumkin.

Ammo filmda ayrim, bahstlab o'rinar ham bor. Xususan, bemor yotgan Humoyunning soch turmagi zamonaviy yigitlarnikiga o'xshab qolgan. Yana bir tomoni badiiy lavhalarda Shayboniyxon obrazini asosan qora bo'yoqlarda ko'rsatishga moyillik kuchaygan. Qayd etish joizki, filmning ilmiy intervyularida Shayboniyxon temuriy shahzodalarning boshboshdoqligidan unumli foydalanilgan, tajribali, o'z jang usuliga ega sarkarda deya ta'kidlanadi. Zero, tarixiy vaziyatning o'zi uni hukmronlik pog'onasiga olib kelgan. Uning uzoqni ko'ra bilish mahoratiga ega ekanini jang sahnalaridan tashqari, saroy a'yonlari bilan qilgan maslahatlar yoki shoirlik mahoratiga oid lavhalar misolida gavdalanitirish mumkin edi.


Qisqacha aytganda, ushbu juz'iy kamchiliklarga qaramay, film bugungi kun tomoshabini, tarix ixlosmandlariga umid berib, kino san'atining tariximiz sari tashlangan yana bir dadil qadamini isbotlaydi.

Elmira HAZRATQULOVA,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

AZAMAT ZIYO:

PREZIDENT

NUTQINING
ASL
MOHIYATI
NIMADA
EDI?



Kelgusi sonlarda

HUJUM

ORTILGAN QISMATLAR...

u ko'pincha muloyim», «shirinsoz» ya'ni «avliy». Biroq, bu «avliy» odamlar, yangi metod bilan, «pismiqlik» metodi bilan o'zlarining qo'poruvchilik ishlarini, o'zlarining ziyonchilik ishlarini olib boradilar» deb uqtirgandi. Stalinning bu ko'rsatmasi endi har qanday ziyoli insonni dushman deb e'lon qilish uchun asos bo'ldi, bu esa hukumatning «Katta qirg'inga» tayyorligini anglatar edi. Qayd etish joizki, o'sha paytda hukumatning tashqi qiyofasi o'zgaragan bo'lsa-da, mohiyati o'zgarmadi. Chunki, «inqilobdan oldingi eksploatatorlar» o'rniga mamlakat iqtisodiyotida «sotsialistik ishlab chiqarish» usuli g'alaba qilishi bilan davlatning o'zi shafqatsiz eksploatator sifatida maydonga chiqdi. Qishloq aholisining kolxozchi dehqonlarga va qishloq xo'jaligi ishchilariga bo'linishi sun'iy-rasmiy xususiyat kasb etgandi. Real hayotda esa, dehqonlarni yoppasiga davlat tasarrufiga olish, ularni davlatning yollanma xodimlariga, unga to'la-to'kis qaram bo'lgan mehnatkashlarga aylantirishdek dahshatli hodisa sodir bo'ldi. Oqibatda dehqonlar o'zining an'anaviy tabiiy tafakkur tarzini yo'qota boshladi. Stalinchka qatag'on siyosatining qurbonlaridan bo'lgan o'zbekistonlik ilk tarixchi, professor P.Solievning o'sha davrdagi ijtimoiy hayot aks etgan quyidagi so'zlariga e'tibor bering: «Borgan sari hayot og'irlashib borayapti, deydi u, un - 170 so'm, odamlar och yoki yarim och, institut talabalari oziq-ovqat qiyinchiligidan noholimda. Eng yomoni, kolxozchilarning ahvoli qiyinligi: ularning bari och, ish paytida ochlikdan ezilib ketganlarini ko'rasiz... yoki, yana: «Oktabrning 20 yilligi yaqinlashyapti-yu, biron bir quruq va'da amalga oshmadi. Samarqand bog'lari qurib qoldi, eski shaharning vayronalari qoldi, xolos, odamlarning na shaxsiy hayoti, na xususiy mulki, na oz bo'lsada, shaxsiy manfaat bor. Umumiy qozon va qalang'i-qasang'i hayot bilan uzoqqa borib bo'lmaydi». Chindan ham yangi iqtisodiy siyosatdan chekinish va mustabid-imperiyacha tuzumni mustahkamlash sharoitida yetilgan illatlar sezilarli darajada keng yoyildi. Mustabid davlat turmushning barcha tomonlarini to'liq nazorat ostiga olgan, partiya apparati va byurokratik nomenklaturaning cheksiz hukmronligi ostida ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy sohalarni madaniyatli tarzda isloh qilish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Aksincha, ijtimoiy hayotda hadik, qo'rquv muhiti yuzaga keldi va odamlar uchun bir-birini sotish, turli g'arazli niyatlarini shu vosita bilan amalga oshirish orqali o'zlarini sho'r'o hukumatining sodiq qilib ko'rsatish imkoniyati paydo bo'ldi. Shu yo'l bilan o'z xavfsizligini, o'zi va oilasi hayotini saqlab qolish oddiy holatga aylamib bordi. Bunday chirkir, mudhish ijtimoiy tumush tarzi sho'rolar tuzumining so'nggi kunlarigacha davlat tomonidan boshqaruv usullarining biri sifatida saqlanib qoldi. Hujum va uning amalga oshirilishi

1926-yilning sentyabr oyida O'rta Osiyo partiya komitetlarining xotin-qizlar bo'limlari xodimlari ishtirokida kengash o'tkazildi va xotin-qizlar orasida olib borilayotgan ishlarni jadallashirish va uni majburiy ravishda o'tkazishga qaror qilindi. Bu tadbir «Hujum» deb ataldi. Bu tadbirni aksariyat ayollar quvonch bilan qarshi oldilar. Chunki, qora chimmatni tashlash yorug'-olamni ochiq yuz bilan ko'rish, ilm olish, hayotda erkaklar bilan baravar huquqqa ega bo'lish ularning asriy orzusi edi. 1927-yilning 8-mart kuni O'zbekistonda bo'lgan yuzlab mitinglarda qatnashgan xotin-qizlar o'z paranjilarini tashladilar. Parani tashlashda ixtiyoriylik va ehtiyotkorlik, milliy urf-odatlarini hurmat qilish o'rniga, zo'ravonlik, majburlash, qo'rqitish va jazolash usullari ustovorlik qildi. Lekin, shunday bo'lsa-da, «Hujum» dastlab katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. 1927-yilning bahoriga kelib 100 ming ayol paranjisini tashladi, 5 ming ayol savodsizlikni tugatish kurslarida tahsil oldi, 5202 nafar ayol viloyat, shahar, tuman sudlariga xalq maslahatchilari qilib saylandilar. Ammo sovetlarning xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish borasidagi shoshma-shosharlik va zo'ravonlik usuli ko'plab ayollarning begunoh qurbon bo'lishiga ham sabab bo'ldi. «Hujum» kampaniyasi 1927 - 1928-yillarida O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar, qishloq, tuman kengashlarining a'zolari, xotin-qizlar klublari va kutubxonalar mudirlari o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi. Chunki masalaning nozik jihatlari bilan qiziqmagan, «Hujum» muvaffaqiyatlaridan esankirab qolgan kompartiya va uning siyosiy rahbariyati O'rta Osiyo xalqlari qoniga singib ketgan islom omilini butunlay inkor etgandi. Unga bepisand qarash, yerga urish, oshkora tan olmaslik, uni qo'porib tashlash yo'li ana shunday halokatli kechdi. Shuningdek, o'sha paytda ijtimoiy omilga ham e'tibor berilmadi. Bunday shoshma-shosharlik aholi orasida sovet hukumatiga nisbatan dushmanlik munosabatini kuchaytirdi. Ko'pchilik xotin-qizlarning ozodlikka chiqarilishiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqqa boshladilar. Shu o'rinda hukumat vakillarining paranjisini tashlagan xotin-qizlarga nisbatan uyushtirilgan jinoyatlarni ruhoniylardan ko'rganini aytish joiz. Natijada sovet hokimiyati ruhoniylarga qarshi yoppasiga kurash e'lon qildi. Ammo butun «Hujum» tadbiri davomida kechirib bo'lmaz strategik xatolarga yo'l qo'yildi: ma'muriy tazyiq o'tkazish, do'q-po'pisa qilish, jarimalar solish, ayollarni majlislariga militsiya yordamida zo'rlab olib kelish ishlari shular jumlasidan edi. Natijada bolsheviklar bilan dindorlar o'rtasidagi bu kurash ochiqdan-ochiq urush shakliga o'tdi. Dinga va ruhoniylarga qarshi kurash «Kurashchan xudosislar» uyushmasi faoliyatida o'zining aniq ifodasini topgan edi. Xotin-qizlar ozodligi uchun kurash aslida sinfiy kurash emas, dunyoqarashlar kurashi edi. Bunda asosiy

e'tibor asrlar osha islom ongiga muhrlangan o'zbek xalqining o'z tasavvurlaridan majburan voz kechishiga qaratilgan edi. Bu kurash partiya qo'mitalarining noto'g'ri ish uslublari sabab sinfiy kurashga aylantirildi. Targ'ibot yuritish uchun machitlar tanlandi, parani tashlash bo'yicha tarkibiga militsiya boshlig'i kirgan «uchliklar» tuzildi, mullalardan o'z xotinlari yuzini ochish to'g'risida majburan tilxatlar olindi. Bunday zo'ravonliklar xotin-qizlar harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. «Hujum» harakatining asl maqsadi faqat parani tashlashdan iborat emasdi. Balki xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarishga keng jalb etish edi. O'shanda Y.Oxunboboyev masalaga Markaz hukumati nuqtayi nazaridan yondashib: «O'rtoq Bauman, «xotin-qizlarni sanoatga tortmasdan, ularni sho'rolar ittifoqining paxta mustaqilligi yo'lidagi kurashga aralashitmasdan turib, biz paxta 5 yillik planining 3 qat'iy yilida oldimizda turgan paxta programmasini bajara olmaymiz» - degandi. Uning nutqida: O'zbekiston Jumhuriyati xotin-qizlarni chinakam ozodlikka chiqaruv uchun kerakli choralarini barchasini bajardi va bajarmoqda. Bu yo'ldagi ishlarni yanada mustahkamlov maqsadida, yaqinda O'zbekiston va Turkmaniston Jumhuriyati bilan sotsializm musobaqasi tuzildi. «Millionlar shartnomasi» deb ataganimiz, bu sotsializm musobaqasi har ikki jumhuriyatning xotin-qizlarini chinakam ozod qilish yo'lida katta yordamdirdi...» Sovetlarga xos «teng huquqlilik»ka erishish oqibatida, 1939-yilga kelib, ayollar erkaklar bajaraning ishini 50 foizini egalladilar. Bu ko'rsatkich, ayniqsa, qishloq xo'jaligida yaqqolroq ko'zga tashlandi. 1930-yili O'zbekiston va Turkmanistonning paxtakor tumanlarida yashovchi ayollar jamoa va davlat xo'jaliklaridagi ishi kuchining 80 foizini tashkil qildirdi. Yoppasiga jamoa xo'jaliklariga jalb etilgan ayollar maishiy shart-sharoitlar, xususan, bolalar bog'chasi yo'qligidan bir qo'lida yoki yelkasida bolasini ko'tarib, dalada ishlardilar. Ammo hukumat vaziyatga o'ziga xos tarzda yondashdi va sovet «g'amxo'rli»ning eng zo'r timsoli sifatida ayollar uchun maxsus «yengil ketmonlar» ishlab chiqarildi. Qayd etish joizki, «Hujum» kampaniyasi jarayonida chindan ham jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Eng avvalo, bu tadbir shoshma-shosharlik bilan, o'zbek xalqining qadriyatlarini e'tiborga olmay amalga oshirildi. Eng yomoni, bu siyosat orqali sho'rolar o'zbek oilalari va o'zbek jamiyatining ijtimoiy hayotida tanib bo'lmaz darajadagi o'zgarishlarga sabab bo'ldi va bu to'ntarish keyingi davrlar uchun ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.



Baxrom IRZAYEV,
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

E'TIROF

Taniqli jurnalist
Olimjon
O'sarovning
navbatdagi she'riy
to'plami
Turkiyada nashr
etilibdi...



Biz tanigan FENOMEN NING yana bir qirrasini

Sir emas, Olimjon O'sarovni ko'pchilik jurnalist sifatida biladi. Keyin u Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylandi. O'shanda ham qalami bilan ko'pchilikning g'ashiga tekkani rost... Parlamentdan keyin Oliy Sudda - Axborot xizmatida ishladi, keyinroq «Nuroni» gazetasiga rahbarlik qildi. Va, sal o'tib «mudrab» yotgan Jurnalistlar uyushmasini uyg'otishga urinib ko'rdi. Aynan O.O'sarov davrida uyushma ham, jurnalistlar ham uyushma nafasini, uning birlashtiruvchi kuchini his qildilar. Ammo bu harakatlar endi-endi tizimlilik kasb etayotgan, uyushma hisob raqamiga mablag' kelib tusha boshlagan paytda O.O'sarovga kattaroq ishonch bildirilib, u boshqa ishga o'tkazildi. Bugun u chindan ham kengroq «masshtab»da faoliyat olib boryapti. Ammo kutilmaganda, buning ustiga xorijda shoir sifatida e'tirof etilayotganini ko'rib rosa quvondik. Ayniqsa, Olimjon akaning «Muhabbatdan Vatan quraman» nomli she'riy to'plamining 10 ming nusxada turk tilida («Aştan Bir Dünya Kuracağım») chop etilganini katta adabiy voqea deb atash mumkin. Tan olish kerak, ayni paytda 10 ming nusxada kitob chop ettirish O'zbekistonda «og'ir ish». Ammo Yevropa, ayniqsa musulmon davlatlarida kitob o'qish hali ham urfdan qolmagani, eng yaxshi

asarlarni qayta-qayta nashr etish tabiiy hol bo'lgani uchun ham mahalliy shoir, yozuvchilardan tashqari xorij adabiyotiga ham e'tibor balandligicha qolyapti. Boshqacha aytganda, hali ham u yoqlarda odamlarning kitobga bo'lgan mehri yashayapti, adabiyot jamiyatni tarbiyalaydi, degan aqidaga tayaniyapti. Ishonchimiz komil, yarim tunda Turkiyaning «Bayceg'ay Yayıncılığı» direktori Olimjon O'sarovga telefon qilib, «kitobingizni chop etyapmiz, ozroq pul o'tkazing» demagan. Turk qardoshlarimizni bu kitobni chop etsak foyda ko'ramizmi, degan savol ham qiynamagan, albatta. Ular o'z xalqiga, ayniqsa, Vatan yoshlariga yaxshi bir she'riy to'plamni tuhfa etib, vatan haqidagi tasavvurlarini boyitish, pul yoki davlat bilan o'lchanmaydigan harakat ekanini bilishadi. Afsuski, bizda hali ham gazeta-jurnallar, kitoblar bu koni tarbiya, koni savod, koni ilm ekanini sohaning ayrim mutasaddilari his etmayaptilar. Ular davlatdan ajratilayotgan mablag'larni katta oyligu, qora-qura mashinalarga, qimmat mebellarga sarflashni eng to'g'ri ish deb hisoblashyapti. Mayli bu, albatta boshqa mavzu... Biz Olimjon O'sarovni yangi kitob bilan qutlaymiz va kitoblari o'zimizda ham shunday katta tirajlarda chop etilishini niyat qilib qolamiz!

Mahbuba KARIMOVA

Ustozlar milliy forumi

Sifatli ta'lim — kuchli jamiyat

Poytaxtimizda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda «Sifatli ta'lim — kuchli jamiyat» shiori ostida «Ikkinchi ustozlar forumi» boshlandi. Forumni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Odil Abdurrahmonov anjumanni ochar ekan, mamlakatimizda ta'limga qaratilayotgan yuksak e'tibor yangilanayotgan O'zbekistondagi ishlohtlarning ustuvor jihatinii tashkil etishini ta'kidladi.

Forumda qayd etilganidek, keyingi yillarda yurtimizda 285 ta yangi maktab barpo etildi. O'quv dargohlarini kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, qaytadan barpo etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Sohada oliy ma'lumotli kadrlar soni sezilarli darajada ortdi. O'qituvchilar uchun qo'shimcha ustamalar joriy etish, moddiy qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy ishlar ko'lami tobora kengaydi. Yangilangan Konstitutsiyamizda o'qituvchilarning sha'nini himoyalashga e'tibor tobora kuchaydi. Shu bilan birga, hali sohada o'z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjudligi qayd etildi. Ayni paytda yangi o'quv yilida maktab ta'limida bir qator yangilanishlar joriy etilishiga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarova soha rivoji shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev e'tibori va g'amxo'rli ostida ekani ta'lim rivojiga katta turtki berayotganini ta'kidladi. Joriy yilning faqatgina olti oyi

davomida o'quvchilarning Xalqaro olimpiadalarida umumiy hisobda oltin medal o'ldi, kumush, bronza medallarini qo'lga kiritgani ayni e'tiborning natijasidir. Shu bilan birga, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini muttasil oshirib borish, Prezident maktablaridagi ilg'or ish tajribalarini joylarda oshirish markazlarini tashkil etish kabi masalalar shular jumlasidandir.

YUNESKO tashkilotining O'zbekistondagi vakili Sara Noshadi O'zbekistonning o'qituvchilik kasbi nufuzini yuksaltirish borasidagi ezgu tashabbuslari va sa'y-harakatlarini YUNESKO qo'llab-quvvatlashini alohida ta'kidladi. Tantanali forumda ta'lim sohasida ibrat bo'lhayotgan ustozlar — O'zbekiston Qahramoni degan yuksak unvonga munosib o'qituvchilar, O'zbekiston xalq o'qituvchilari, mahoratli pedagoglar forum tashkilotchilari tomonidan taqdirlandi. — Bugun Prezident


maktablaridagi ijobiy ish tajribalarini joylarda ommalashirish muhim ahamiyat kasb etadi, — dedi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i Dilshoda Norboyeva. — Shu bilan birga bugun dolzarb masalalar yechimiga alohida e'tibor qaratiladi. Ikki kunlik forum davomida vazirlik vakillari, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi, Pedagogik mahorat va Xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi, Respublika ta'lim markazining malakali mutaxassislari hamda Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablarning trener-o'qituvchilari tomonidan taqdimotlar, treninglar, mahorat darslari olib boriladi. Xususan, maktabgacha ta'lim yo'nalishida Jahon banki ishtirokidagi «Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish» loyihasi davomida muqobil modellar faoliyatini tashkil etish tajribasi», «Maktabgacha ta'lim sifatini baholash tizimini ta'minlash va MELKO xalqaro o'lchov vositasini joriy etish, maktabgacha ta'lim



tashkilotida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirish kabi masalalarda trening va taqdimotlar tashkil etiladi. Maktab ta'limi yo'nalishida «O'quvchilarda 21 asr ko'nikmasini rivojlantirish», «Loyiha ishlari orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyotdan nazariyaga», «Yangi o'quv yili uchun ishlab chiqilgan o'quv reja, taqvim-mavzu reja hamda tavsiyalar», «Tajriba-

sinov maktablarida yangi baholash tizimini joriy etish», «Tajriba-sinov maktablarida tanlov fanlarini samarali joriy etish — metodik ta'minot», «Umumta'lim maktablarini darsliklar bilan ta'minlash tizimini raqamlashtirish: muammolar, yechimlar, vazifalar» mavzusida trening va mashg'ulotlar bo'lib o'tadi.

Nazokat USMONOVA,
O'ZA muxbiri



Olimjon
O'sarov

MUHAMMAD DAN VATAN QURAMAN

Zulmat emas bu ko'hna dunyo,
Yolg'izlikni tan olmas bir zum.
Ko'kda quyosh sochmishdir ziyo,
Nurlariga yuvgayman yuzim.

Kechalari esar shabboda,
Ko'k ummonda qayiqsimon oy.
Kavokiblar chaqnar jazoda,
Musaffo tog' ochmishdir chiroy.

Juda baland ul moviy tog'lar,
Xuddi mening orzuim kabi.
Qanday go'zal bu yoshlik chog'lar,
Ravo bo'lsa dilning matlabi.

Yaltiragan oppoq qor kechib,
Ketar bo'ldim huv o'sha toqqa.
Orzularning sharobin ichib,
Quvvat oldim qo'lu oyoqqa.

Baxtiyorman – men baxtga yorman,
Hur yoshlikning zavqin suraman.
Ishq yo'lida mangu bedorman,
Muhabbatdan Vatan quraman.

SAMARQAND

(Yurtimiz olimlari tomonidan aniqlangan va shu paytgancha fanga noma'lum bo'lgan yangi sayyora jahon astronomlari tashkiloti tomonidan rasman e'tirof etilib, «Samarqand» sayyorasi nomi bilan «Kichik sayyoralar Xalqaro katalogi»ga kiritildi)

Mirzo Ulug'bekning nigohi uyg'oq,
Hamon yulduzlarga yo'ldosh Samarqand.
Shubha qilsang, zij-u jadvallarga boq,
Yangi sayyoraga nomdosh – Samarqand!

Hech narsa tasodif emas dunyoda,
Haq Tangri azmi-la aylanar davron.
Bu yurt azaldan zo'r ilmu ziyoda,
Buyuklar diyori atalgay hamon!

Sohibqiron Temur ruhi madadkor,
Buxoriy, Navoiy poyi muqaddas.
Bundadir Ko'ksaroy, Namozgoh, Sherdor,
Dunyo sayyorahil qilurar havas.

Registon maydoni jahon san'atin
Buyuk sahnasiga aylandi chindan,
Dunyo tinglamogda yurtim da'vatini:
O'zbek buyuk millat, kammal hech kimdan!

Boisi undadir buyuk bir meros,
Ma'naviy qadriyat ilmu in'ron ham.
Hatto Afinani qilganda taqqos,
Samarqandning sha'ni turgay muhtaram.

Bejizga demaslar zamin sayqali,
Samarqand chindan-da tabarruk shahar,
Bundan-da ulug'vor bo'lgusi hali,
Bundan-da tole bo'lgay muzaffar!

Bejizga bu yurtidan chiqmas daholar,
Bu yurtga Tangrining tushgan nazari,
Samarqandni so'z ila bo'lmas baholab,
Unga teng kelmagay olamning zari...

Mirzo Ulug'bekning nigohi uyg'oq,
Hamon yulduzlarga oshyon Samarqand.
Istasang Yulduzlar karvoniga boq,
Barcha sayyoraga Sarbon – Samarqand!

SEN XALQDIRSAN

Qo'y kabi bo'g'izlab so'yildi odam,
Otdilar erk sari qo'yilsa qadam,
Haqorat so'zlari tinmadi bir dam,
Bu kundani atigi yuz yil muqaddam,
O'chirib bo'larmi buni ko'ngildan?

Ko'zlaring o'ngida onangni otdi,
Qamchi izi otang yuziga botdi,
Duogo'y singilningi qo'lma-qo'l sotti,
Bu kundani atigi yuz yil muqaddam,
O'chirib bo'larmi buni ko'ngildan?

Tug'ilmay ko'z yumdi necha avlodning,
Sabolarga indi ohu faryodning,
Ag'vor barbod etdi bog'i bunyodning,
Bu kundani atigi yuz yil muqaddam,
O'chirib bo'larmi buni ko'ngildan?

O, xalqim, bu kunlar bo'lmasin unut,
Erku istiqloling endi mahkam tut,
Olga boshlar Sarbon misoli burgut,
Bo'l unga hamisha hamkoru hamdam,
Zero, Sen xalqdirsan, kammal hech kimdan.

ONAMNING SUVRATI

Titroq qo'llarining mo'jaz kaftida,
Taram-taram qaqrab yotadi shudgor.
Rangini yo'qotgan ro'mol ostida,
Kumushdek tovlanar bir tutam oq qor.

Kirtaygan ko'zlari – qurigan buloq,
Quyosh ham uylar qaragan kezi.
Tilgilar orzusi yulduzdan yiroq,
Yuzida chiziqlar – temir yo'lizi.

Har kuni iz solar tashvish ishchisi,
Kesishib-kesishib ketgan bu izlar.
Bekatsiz izlardan shoshib o'tadi,
Vagon-vagon armon ortgan poyezdlar.

SAVOI BERING!

? – Oilam bilan ajrashganman. Farzandimni boshqa davlatga olib ketmoqchiman, lekin bunga sobiq turmush o'rtog'im qarshilik qilyapti. Uning bunga haqqi bormi? Qanday hollarda bolani otasining rozilgisiz chetga olib ketishim mumkin?
Zarina Yodgorova, Samarqand shahri

– Ha, haqqi bor. Belgilangan normaga asosan, O'zbekiston Respublikasining voyaga yetmagan fuqarosiga xorijga chiqishda ota-onaning biri vafot etganda, boquvchisiz yolg'iz ona bo'lganda, bolaning ota-onasidan biri xorij fuqarosi bo'lganida, ota-onadan biri sud tomonidan ota-onalik huquqlaridan mahrum qilingan, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoxud muomalaga layoqatsiz deb topilganida yoki ota-onadan birining O'zbekiston Respublikasi hududidagi doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxati xorijga doimiy yashashga ketganligi munosabati bilan bekor qilinganidagina ruxsat beriladi. Hozir u bilan birga yashamayotganingiz, nikohdan qonuniy tartibda ajrashganingiz, hozirda boshqa oila qurib yashayotgani va shu kabi sabablar bolani otasining rozilgisiz boshqa davlatga olib ketishingizga asos bo'lmaydi.

? – Bir tanishim meni kamsitish va obro'sizlantirish uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali yolg'on ma'lumot tarqatib yuribdi. Unga qanday qonuniy javobgarlik bor?
Umida Hoshimova, Marhamat tumani

– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddasiga ko'ra, shaxsning qadr-qimmatini kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantirilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya yoki internet tarmoqlarida tarqatish, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari (16 500 000 so'm) miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.
Zayniddin Nizomov, huquqshunos

? – Bankdan iste'mol krediti olganman. Agar belgilangan muddatdan oldin qarzdorligimni to'liq to'lasam, qolgan oylarga foiz hisoblanmaydimi?
Diyorbek Usmonov, Toshkent shahri

– «Iste'mol krediti to'g'risida»gi qonunning 16-moddasiga asosan, iste'molchi olingan krediti summasini qaytarishi va hisoblangan foizlarni to'lashni muddatidan ilgari amalga oshirishga haqli. Kredit uchun foizlar faqat undan foydalanilgan vaqt uchun hisoblanadi.
Markaziy bank Matbuot markazi

? – 25 yillik mehnat stajiga egaman. Pensiyaga chiqqan paytimda 9 yillik mehnat stajimni tasdiqlovchi hujjat arxivdan topilmagani sababli menga kam miqdorda pensiya tayinlangan. Endi ushbu hujjat topildi. Shu hujjatga asosan pensiyam miqdori oshirilishi mumkinmi?
Sultonposhsha Shamiyeva, Xorazm viloyati

– Ha, oshiriladi. «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunning 49-moddasiga ko'ra, sizni pensiyaga chiqishingizga bo'lgan 9 yillik mehnat stajingizni tasdiqlovchi hujjat pensiya miqdoriga ta'sir qiluvchi hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida jami mehnat stajingizdan kelib chiqib pensiyangiz qayta hisoblanishi va stajingizga mos ravishda oshirilishi lozim.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Matbuot markazi

? – Farzandim nodavlat oliy ta'lim muassasasida o'qiydi. Agar mazkur OTMning faoliyati qandaydir sabablarga ko'ra to'xtatilsa, o'qishini boshqa OTMga ko'chirishi mumkin bo'ladi?
Gulnora Siddiqova, Qarshi shahri

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 200-sonli Qaroriga ko'ra, litsenziyasi bekor qilingan ta'lim tashkiloti yoki yopilgan ta'lim dasturida tahsil olayotgan talabalarga o'qishini davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko'chirish huquqi berilishi belgilangan. Ya'ni, faoliyati to'xtatilgan OTMda tahsil olayotgan talabalar bu holatda o'qishini yo'nalishiga to'g'ri keladigan boshqa OTMga ko'chirishi mumkin.
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot xizmati



? – Haqorat qilganligi uchun bir marta ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs yana shu qilmishini takrorlasa unga qanday chora ko'riladi?
Said To'laganov, Xiva shahri

– Jinoyat kodeksining 140-moddasiga ko'ra, haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, basharti, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravari (66 000 000 so'm)gacha miqdorida jarima yoki 240 (ikki yuz qirq) soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Jazo chorasi haqorat qilgan odamning shaxsiga va haqorat qilish usuliga qarab yanada og'irlashtirilishi mumkin.
Yurist, blogger rasmiy telegram kanali

TARIX «xatosi»

TO'QQIZINCHI ASR. Muhammad al – Xorazmiy algebra faniga asos soldi.
O'NINCHI ASR. Abu Nasr Farobiy Aristotelning «Metafizika» asariga eng mukammal sharh yozib, «ikkinchi ustoz» unvonini oldi.
O'N BIRINCHI ASR. Abu Rayhon Beruniy Yer bilan Oy o'rtasidagi masofani o'lchadi. Ibn Sino meditsina Qomusi – «Tib qonunlari»ni yaratdi.
O'N TO'RTINCHI ASR. Sohibqiron Amir Temur Yevrosiyaning yarmini tasarrufiga oldi. Ahli ilm boshini silab, o'lmas obidalar yaratdi.
O'N BESHINCHI ASR. Ulug'bek 1019 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o'lmas «Xamsa»sini yozdi.
O'N OLTINCHI ASR. «Boburnoma» olamga tarqaldi.
O'N YETTINCHI ASR. Shoh Jahon dunyodagi yetti mo'jizaning biri – «Tojmahab»ni bunyod etdi.
YIGIRMANCHI ASR. O'zbek – sovet olimlari misli ko'rimagan «xitiro» qildilar: tarix «xato»sini tuzatib, o'tmishda biz yoppasiga «savodsiz» bo'lganimizni isbotlab berdilar...



O'kir HOSHIMOV

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Ilhom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,
Nodir MUXTOROV,

Odiljon TOJIYEV,
Olim O'SAROV,
Otabek JIYANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Ortiqali QOZOQOV,
Feruza MUHAMMEDJANOVA,
Xurshid DO'STMUHAMMAD,
Sherzodxon QUDRATXO'JA,
Shavkat SHARIPOV,
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

Tahririyat
MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVATCHI MUHARRIRLAR:

Ravshan MAHMUDOV,
Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxonada manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 7 193.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 2 bosma taboq
Buyurtma: G – 816
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 01:30

ISSN 2010-7714

123456